XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-iyul VI-144-84-7-105-K/24 Urgut tumani

Urgut tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabrdagi Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayonining 20-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi”ning 8 va 9-bandlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika Aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 9-iyuldagi 5-2024-6/149-sonli xati, Samarqand viloyati Urgut tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha doimiy ishlovchi komissiya yig‘ilish bayonnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24- moddalariga asosan, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq navbatdagi bir yuz qirq to‘rtinchi sessiyasi.

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika Aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 9-iyuldagi 5-2024-6/149-sonli xati, Samarqand viloyati Urgut tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha doimiy ishlovchi komissiya yig‘ilish bayonnomasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Urgut tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq, Urgut tumanining chegara chizig‘i chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (D.Ochilov), “Urgut sadosi” gazetasi (A.Ziyodov) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi G‘.Ro‘ziqulov hamda tuman hokimining qurilish,

kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Xudoyberdiyev zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi

XUDAYKULOV
SHERALI
UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-144-84-7-105-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati Urgut tumani ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining
T A V S I F I

“___“ _____20___ yil. Samarqand shahri

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan, Samarqand viloyati Urgut tumani, Toyloq tumani, Bulung‘ur tumani, Samarqand tumani, Qashqadaryo viloyati hamda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh qismidagi ma’muriy chegarasini belgilash bo‘yicha tavsifi ishlab chiqildi.

Urgut tumanining ma’muriy chegaralarini belgilashda boshlang‘ich nuqta qilib Urgut tumani, Samarqand tumani va Toyloq tumani chegara chizig‘ining tutashgan joyi boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 39°33'03,761", sharqiy uzunlik koordinatlari 67°02'01,054").*

A dan B gacha Toyloq tumani yerlari bilan 1– 19 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1690 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'23,958", sharqiy uzunlik 67°02'48,690").*

2 - nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 692 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 998 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 40 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 176 metr masofada devorga tutashadi va devor bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 166 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 874 metr masofani o‘tib, zovur

boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'52,131", sharqiy uzunlik 67°04'37,992").*

3 - nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy yoʻnalishda 627 metr masofani oʻtib, Dargʻom kanali boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'09,291", sharqiy uzunlik 67°04'40,225").*

4 - nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Dargʻom kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 450 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 490 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1340 metr, soʻngra janubiy yoʻnalishda 390 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 200 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 690 metr, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 138 metr masofada kanalni kesib oʻtib ariqqa tutashadi va ariq boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 50 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'46,912", sharqiy uzunlik 67°06'23,944").*

5 - nuqtadan chegara chizigʻi ariq boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 149 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 236 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 660 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 36 metr, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 409 metr masofada ariqqa tutashadi va ariq boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 161 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 109 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda quruq chegara chizigʻi orqali 159 metr masofada Dargʻom kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'18,930", sharqiy uzunlik 67°06'58,958").*

6 - nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-sharqiy yoʻnalishda Dargʻom kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni boʻylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1612 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'54,055", sharqiy uzunlik 67°07'45,173").*

7 - nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy yoʻnalishda Dargʻom kanalini 49 metr masofada kesib oʻtadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 95 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariq boʻylab 231 metr, soʻng umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 130 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 332 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 120 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 385 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'26,708", sharqiy uzunlik 67°08'05,945").*

8 - nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 557 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'36,372", sharqiy uzunlik 67°07'48,465").*

9 - nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni boʻylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 198 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 263 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy

yoʻnalishda 2329 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 108 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 91 metr, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 666 metr masofada Dargʻom kanalini kesib oʻtadi va kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 269 metr, soʻngra umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 410 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 775 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'19,077", sharqiy uzunlik 67°09'57,411").*

10 - nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Dargʻom kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 797 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'07,689", sharqiy uzunlik 67°10'23,788").*

11 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Dargʻom kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2393 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°30'32,560", sharqiy uzunlik 67°11'33,765").*

12 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Dargʻom kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 705 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°30'24,601", sharqiy uzunlik 67°11'58,943").*

13 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Dargʻom kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 374 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1846 metr masofani oʻtib, Aylanma Dargʻom kanali boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°30'37,242", sharqiy uzunlik 67°13'24,901").*

14 - nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda Aylanma Dargʻom kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 75 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 727 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 744 masofani oʻtadi, soʻngra umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Aylanma Dargʻom kanalini 30 metr masofada kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2152 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1571 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 273 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'11,902", sharqiy uzunlik 67°16'19,945").*

15 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3280 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 390 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 670 metr masofada A-377 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'22,052", sharqiy uzunlik 67°18'01,299").*

16 - nuqtadan chegara chizigʻi A-377 avtomobil yoʻlinining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 215 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda

51 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 842 metr masofada ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 626 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 928 metr, soʻngra umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1565 metr masofada Aylanma Dargʻom kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 453 metr, keyin yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda ariq boʻylab 540 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'32,444", sharqiy uzunlik 67°21'09,972").*

17 - nuqtadan chegara chizigʻi ariq boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda 33 metr, keyin Aylanma Dargʻom kanalini 72 metr masofada kesib oʻtadi va qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan 115 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 600 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 150 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 140 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'45,945", sharqiy uzunlik 67°21'46,380").*

18 - nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 382 metr masofada Zarafshon daryosiga tutashadi va chegara quruq chegara chizigʻi orqali yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 1207 metr masofani oʻtib, Bulungʻur tumani bilan chegaradosh daryo oʻzanida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'34,206", sharqiy uzunlik 67°21'51,821").*

B dan D gacha Bulungʻur tumani yerlari bilan 19 – 20 - nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

19 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosi suv oqimiga qarshi daryo oʻzani bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5571 metr masofani oʻtib, daryo oʻzanida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°32'05,129", sharqiy uzunlik 67°24'47,767").*

D dan E gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 20 – 21 - nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

20-nuqtadan 21-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 39°18'30,318", sharqiy uzoqlik 67°20'44,914")*

E dan F gacha Qashqadaryo viloyati yerlari bilan 21 – 27 - nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

21 - nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 988 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4152 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1015 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 664 metr masofani oʻtib, 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°18'45,078", sharqiy uzoqlik 67°16'48,386").*

22 - nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda

10007 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1097 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1492 metr masofani oʻtib, 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°20'03,405", sharqiy uzoqlik 67°09'19,631").*

23 - nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2423 metr, keyin umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8213 metr masofani oʻtib, 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°20'47,645", sharqiy uzoqlik 67°03'29,223").*

24 - nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 495 metr, keyin umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1667 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 851 metr, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1509 metr, keyin umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 5295 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 982 metr, soʻngra umumiy gʻarbiy 665 metr, keyin janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 632 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 245 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 148 metr, soʻng Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 690 metr, soʻngra umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 753 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy 438 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°16'08,106", sharqiy uzoqlik 67°00'02,898").*

25 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 43 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 412 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 102 metr, soʻngra yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 145 metr masofada soyga tutashadi va soy boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1283 metr, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 1263 metr masofada Zarafshon togʻ tizmasiga tutashadi va togʻ tizmasi boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8097 metr masofada M-39 avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi, soʻngra yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 2076 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2027 metr, soʻngra umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2921 metr masofani oʻtib, 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°17'37,136", sharqiy uzoqlik 66°51'04,183").*

26 - nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 713 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 898 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 623 metr, soʻngra umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1048 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 712 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 297 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 382 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1772 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 1297 metr,

soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 225 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 909 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 1309 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4049 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 772 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 442 metr, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 2234 metr, soʻngra togʻ tizmasi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1189 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 772 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 760 metr, keyin umumiy shimoliy yoʻnalishda 1429 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 763 metr masofani oʻtib, Toyloq tumani yerlari bilan chegaradosh 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°25'26,784", sharqiy uzoqlik 66°51'15,033").*

F dan A gacha Samarqand tumani yerlari bilan 27 – 1 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

27-nuqtadan chegara chizigʻi avval Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1555 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 965 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 481 metr masofani oʻtib, 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°26'32,345", sharqiy uzunlik 66°51'34,582").*

28-nuqtadan chegara chizigʻi avval Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1390 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2760 metr, so‘ng umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2880 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 723 metr masofani oʻtib, 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°26'32,490", sharqiy uzunlik 66°55'49,612").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i Zarafshon togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 9345 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°29'36,302", sharqiy uzunlik 67°00'15,515").*


30-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 251 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2438 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2331 metr masofada M-39 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'37,830", sharqiy uzunlik 67°00'45,754").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 1031 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'04,822" sharqiy uzunlik 67°00'52,512").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 366 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 34 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1642 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'34,960", sharqiy uzunlik 67°02'05,538").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 772 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1671 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1007 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'03,761", sharqiy uzunlik 67°02'01,054").*

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-144-84-7-105-K/24 -son qaroriga
2-ilova


Samarqand viloyati Urgut tumanining chegara
CHIZMASI
A
B
D
E
F
Samarqand tumani
Toyloq tumani
Bulung‘ur tumani
Tojikiston Respublikasi
Qashqadaryo viloyati
1
2
3
4
5
6
7
8
9
10
11
12
13
14
15
16
17
18
19
20
21
22
23
24
25
26
27
28
29
30
31
32
33
Shartli belgilar
Urgut tumanining chegarasi va yer maydoni
1
Urgut tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami